

## MULOQOT FALSAFIY KATEGORIYA SIFATIDA

Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti. O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445114>

**Annotatsiya.** Hozirgi davrda yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda o'zaro muloqot jarayoni g'oyatda katta rol o'ynaydi. Chunki muloqot jarayonida borliqdagi xilma-xil narsa, xodisalar bilan munosabatda bo'lishi asosida ularning mohiyatini anglay boshlaydi. Muloqot dialektik jarayon bo'lib, kishilarning o'zaro aloqa munosabatlarida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, jamiyatda hal qilinmagan muammolar muloqot jarayonida o'z yechimini topib jamiyatda muvozanat yuzaga kelib, jamiyat taraqqiyoti yuksalaveradi. Shu nuqtayi nazardan ham muloqot insonlar o'rtasida xilma-xil ijtimoiy munosabatlarida amalga oshadi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, falsafa, munosabatlar, dialectika, tushunish, ijtimoiy guruh, manalog, dialog, tarix, millat.

## КОММУНИКАЦИЯ КАК ФИЛОСОФСКАЯ КАТЕГОРИЯ

**Аннотация.** В современный период чрезвычайно важную роль в комплексном воспитании молодежи играет процесс взаимного общения. Потому что в процессе общения различные вещи сущего начинают понимать свою сущность исходя из их связи с событиями. Общение - это диалектический процесс, который проявляется во взаимодействии людей. Ведь нерешенные проблемы в обществе найдут свое решение в процессе диалога, в обществе будет создан баланс, повысится развитие общества. С этой точки зрения общение происходит между людьми в различных социальных отношениях.

**Ключевые слова:** общение, философия, отношения, диалектика, понимание, социальная группа, аналогия, диалог, история, нация.

## COMMUNICATION AS A PHILOSOPHICAL CATEGORY

**Abstract.** In the modern period, the process of mutual communication plays an extremely important role in the comprehensive education of young people. Because in the process of communication, various things of existence begin to understand their essence based on their connection with events. Communication is a dialectical process that manifests itself in the interaction of people. After all, unresolved problems in society will find their solution in the process of dialogue, a balance will be created in society, and the development of society will increase. From this point of view, communication takes place between people in different social relationships.

**Keywords:** communication, philosophy, relations, dialectics, understanding, social group, analogy, dialogue, history, nation.

Insonning o'z o'zini anglashi shaxslararo munosabatlarning yaxshilanishi turli tuman ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi va mustahkamlanishida muloqot bosh bug'in bo'lib xisoblanadi. Yani ayrim kishi muayyan ijtimoiy guruh, millat, xalq, davlat, jamiyatning qandayligi va istiqbolida qay darajada turishi, ular o'rtasidagi muloqotning qanday prinsiplar asosida o'rnatilganligiga bog'liq. Shuning uchun barcha tarixiy davrlarda insoniyatning eng ilg'or kishilari faylasuflar muloqot masalasiga asosiy ye'tibor berib kelgan. Muloqot borasida eng avval Suqrotning g'oyalari muxim axamiyat kasb etadi. Bu masala bo'yicha Suqrot

shubhasiz jamoatchilikning murosaga kelishi va ishonchini shakllantirishning eng yaxshi usuli sifatida yuzma yuz muloqat qilishni rag‘batlantirgan. Suqrot o‘zining asosiy falsafiy g‘oyalarini og‘zaki aytgan holda umumiy omma ixtiyoriga yetkazib borgan. U o‘zing falsafiy fikrlarini monolog shaklida emas dialog shaklida olib borgan. Bunda suhbatdosh bilan muloqot qilish ortidan o‘zaro fikirlar qarama-qarshiligidini yuzaga kelgan va baxs-munozara orqali haqiqatni yuzaga chiqarishga intilgan.

“Suqronning fikricha muloqot jarayonidaadolatlilik, mardlik, yaxshilik, haqiqat, reallik va shu kabi tushunchalarni tahlil yetish yordamida vujudga keladigan tushunish mustahkam va o‘zgarmasdir. Biz tushunchalarni tahlil etar ekanmiz narsalarni aslida qanday holda bo‘lishini idrok qilishimiz mumkin”. Muloqot davomida mavjud narsa va qadriyatlarning ijobjiy tomonlarini anglash adolatga yo‘g‘rilgan g‘oyalarni to‘g‘ri idrok yetishga qaratilgan bilimlar olish nazarda tutiladi. Suqrot odamlar bilan suhbatlashar ekan insonlarning qilayotgan ishlari hayotiy holatini o‘ylashga ularning amallari, so‘zlarini, belgilagan asosiy tamoyillar va qarashlari haqida fikr yuritishga majbur etishga urungan. Suqrot muloqot davomida suhbatdoshi gap nimada haqida ketayotganini tushunishi va buni anglashi muhim deb hisoblagan. Shu sababli Afinada erkin va ochiq muloqot uchun shart sharoit yaratishga e’tibor borgan. Suqrotning o‘zining falsafiy mushohadalarida insonni o‘zligini anglashiga va o‘z menini topishi lozimligiga ishongan. Uning “o‘z o‘zingni anglagil va bilgil” degan mashxur iborasi bor. Suqrot o‘zining ichki nidosi bilan muloqot qilish haqida gapiradi. U buni iblis deb ataydi. Bunda Suqrot o‘z vijdoniga qarshi hech qachon harakat qilmaganini takidlaydi. Insonlarni ham o‘zligini anglash yo‘lida ba’zan o‘z o‘zi bilan muloqot qilish muhimligini bildirib o‘tgan.

Suqrot o‘z g‘oyalarini yozuvlardan foydalaniib kitob shaklida qoldirmagan. Afinada o‘sha davrda yozish uchun manbalar yetarli bo‘lsada. U hech narsa yozib qoldirmadi. Yozuv o‘z o‘zidan javob bermaydi deb o‘ylardi Suqrot “Men Phaderusning fikrlariga qo‘shilmayman yozuv afsuski rasmga o‘xshaydi, rassom asarlarida hayotga nisbatan munosabat bor ammo agar siz ularga savol bersangiz tinmay sukut saqlashadi” shundan ham ma’lumki Suqrot inson muloqot orqali kamolot tomonga yetishi mumkinligi tushunturmoqchi bo‘lgan. U muammoni yechimini bahs-munozara orqali muloqotga kirishib yechish mumkinligiga ishongan.

Suqrotni shogirdi bo‘lgan yana bir Afinalik faylasuf Aflatun o‘zining falsafiy qarashlarida muloqotning muhimligini bildirsada, ustozidan farqli ravshida faqat og‘zaki muloqot orqali g‘oyalarni yetkazmay balki yozma shaklda yetkazish muximligiga e’tbor qaratgan. U mana shu shaklda 30 ga yaqin kichik va katta dialog yozgan. Aflatun dialoglarida inson munosabatlarini jonli va nisbatan oddiy ko‘rinishda aks ettirishga harakat qiladi va uning dialoglarida uzil-kesil xulosalar yo‘q. Odatda Aflatun dialoglarini 3 guruhga ajratib ko‘rsatishadi. 1.Suqrotcha dialoglar 2. Aflatunning yetuklik doktrinasini aks ettiruvchi dialoglar 3. Sungi dialoglar, qonunlar shunga mansubdir. Aflatun odamlarga yetkazmoqchi bo‘lgan falsafiy g‘oyalar biroz murakkabligini quyidagicha bayon qiladi. “Falsafa bilimning boshqa sohalaridagi kabi bayon qilishga yo‘l qo‘ymaydi; biroq faqat uning predmeti va shu predmet bilan hayot haqidagi uzoq muddatli suhbatdan keyingina go‘yo to‘satdan dilda ma’shaladan nur chaqnab ketganday bo‘ladi” Aflatun falsafiy g‘oyalarni anglash va shundayligicha hazm qilish inson uchun qiyin ekanligini his etadi. Insondon buning uchun iroda, kuch, g‘ayrat va vaqt talab etiladi. Bu yo‘lda eng muhim jihat boshqa bir haqiqat izlovchilar bilan muloqotga kirishishdir. Aflatun suhbat va munozaralarni insongacha haqiqatni bildiruvchi vosita sifatida ko‘radi.

Yangi davr faylasuflaridan bo‘lgan Edmund Gusserl Fenomenologik qarashlarida, til butun dunyo o‘rtasida vositachilik qiladi , lekin til faqat vositachi sifatida o‘likdir, deydi. Gusserl inson bir-biri bilan muloqot davomida aytilgan bitta so‘z faqat yagona bo‘lgan ideal qiymat bilan birga keladi deb takidlaydi. Ayrim hollarda muloqot jarayonida haqiqat yoki ifoda yetishning yolg‘onligini kafolatlaydigan ideal metod bo‘lishi mumkin emas. Bu muloqotdagi nutq chinakam samimiylig va tasodifdir, shu sababdan ham muloqotni Gusserl o‘zing fenomenologiya nuqtai nazaridan o‘tkazgan turli tadqiqotlarida foydasiz ekanligini keltirgan, chunki, ideal qiymat maqomini kafolatlamoqchi bo‘lgani sababli ham muloqot bundan mustasno bo‘lishi lozim edi. Biroq keyinchalik u ideal qiymat nazariyasini o‘zgartirdi. Gusserl yakka shaxsni o‘zni kamol toptirishga intilishni sub’ektni anglashga bo‘lgan harakat sifatida qo‘llagan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan monolog emas balki muloqot inson qadriyatlarinig asosiy debochasi yekanligiga ishora qilgan. Shu jihatdan Kommunikativ jamiyatning transsidental muloqoti bizning umumiyl duniyomizni yaratishimizni ayni sababchisidir.

Gusserl muloqotni keng ma’noda tushunishini ta’kidlaydi. Bunda keng ma’nodagi muloqat harflar, imo ishoralar va so‘zlarni o‘z ichiga oladigan muloqot shakli ekanligini takrorlaydi. Fenomonologik nuqta'y nazardan muloqot inson faoliyatining keng doirasini qamrab oladi. Chunki, insonlarning o‘zaro munosabati tizimli asosda shakllangan. Uning harakati, o‘zini tutishi hatto yuz ifodasi ham insonning ichki kechinmalari to‘g‘risida axborot beruvchi vosita hisoblanadi. Buning barchasi muloqotning davomiyligi va uning miqdori bilan uzviy bog‘liqdir.

Muloqat masalasida Xaydeger ta’limotida Gusserlning ayrim qarashlarida o‘xshash elementlarni ko‘rishimiz mumkin. U ham Gusserl’ kabi inson subektiv mohiyatiga e’tibor beradi. Biroq inson o‘z menini anglashida monologik muloqotning ahamiyati mutloqlashtirmagan holda inson bilan inson o‘rtasidagi muloqotning ahamiyatiga ko‘proq e’tibor beradi. Chunki, inson ijtimoiy jonivor sifatida doimo bir biri bilan muloqotda bo‘lishni taqazo etadi. Xeydeger bu munosabtlar inson o‘zligidagi kamchiliklarni aniqlashda yordam berishini va shu bilan birga o‘z menini takomillashtirishi mumkinligini nazarda tutgan. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, inson o‘zidagi kamchiliklarni ko‘ra boshlaydi ichidagi ichki imkoniyatlari haqida o‘yay boshlaydi, bu haqda tafakkur yuritadi shu asnoda o‘z shaxsiy menini mukammallashtirishga imkoniyat vujudag keladi.

Faylasuf Karl Yaspersning ekzistensializm falsafasida muloqat nazariyasini orqaga tarixan qaytadigan ijtimoiy shartnoma nazariyasiga qarshi kurash sifatida shakllandı, deya takidlagan. Muloqat nazariysi tarafdarları (Yaspers, Emanuel Muniyer,) ta’kidlagandek, ijtimoiy shartnoma bu bitim hisoblanib, bunda barcha ishtiroychilar kelishilgan holda o‘zlar uchun ma’lum qonun-qoidalalar tuzadi va uni bajarish barcha uchun majburiyat yukini yuklaydi. O‘zaro muloqot qilgan holda qonun-qoidalarga bo‘ysinib faoliyat olib borishni nazarda tutadi. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi yana bir boshqa tarifda esa muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni deyiladi.

Psixologiyaga oid kitoblarda: “Muloqot – hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlanirish jarayoni; muloqat belgilar tizimi orqali sub’ektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi. Muloqat-kamida ikki kishining o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib,

bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki korreksiyalanadi" – degan ta'riflar berilgan.

Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga yetkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsiyonal holati haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma'lum tartibda aloqaga kirishishga yo'naltiruvchi, ularning emotsiyonal holatlari (mamnunlik, shodlik, g'azab, qayg'u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma'lumotlar o'tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqlar o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda aytadigan bo'sak insonlar o'rtasida muloqot doimo bo'ladi. Bu jamiyatda insonlar aro axborot almashuvining muhim belgisi hisoblanadi. Bu inson ichki meni va g'oyalarini umumiyligi yoki bo'lmasam yagona bo'lgan individ uchun qisman, ba'zan to'liqiroq inson haqida tushuncha hosil qilishga zamin yaratadi. Umuman muloqot masalasiga to'xtaladigan bo'lsak bunda bu atamga turli hil ta'riflar berilgan Muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va yetkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

- Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosa atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.
- Muloqotning kognitiv tomoni suhbатdoshning kim, qanday odam yekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.
- Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va sh.o'.lari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.
- Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.
- Muloqotning konativ (hulq-atvor tomonidan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashadirishga xizmat qiladi.

Muloqot o'zining maxsus masalalari hal etiladigan ma'lum bosqichlarga ega. Eng muhim bosqich – muloqotni rejalashtirish, o'zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishishdir. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his yetish, o'zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo'nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o'rnatilishi bilan yakunlanadi. So'ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Uning maqsadi – suhbатdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So'ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo'lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi va nihoyat, natjalarni qayd etish bosqichi boshlanadi.

Agar mavzular ko‘rib chiqilgan bo‘lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba’zida ular ko‘p vaqt davom yetgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o‘zlashtirish va o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

## Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro‘yobga chiqariladi. Shu ma’noda aytadigan bo‘lsak, muloqot globollashgan dunyoda turli millat ijtimoiy guruh va davlatlar o‘rtasida doimiy axborat almashuvini ta’minlashi bejiz emas, zero muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Shunaday qilib muloqot inson, millat, xalq va jamiyatning mayjudlik yashash usuli. Hozirgi kunda va kelajakda ularning qanday bo‘lishi ular o‘rtasidagi muloqotning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Shuning uchun ham hozirgi kunda jaxonda va hususan mamlakatimizda ham muloqot jarayonini ilmiy taxlillar asosida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish juda muhim va dolzarbdir

## REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent, 1992
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. T., 1997
3. O`zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T., 1997
4. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, 2017.
5. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma’ruzalar to‘plami).T. 2003. ToshDPU.
6. FAkramova. R.Abdullayeva. Oilaviy hayotni o‘rganishga oid psixologik testlar.T. 2002. Respublika «Oila» markazi.
7. M. Maxsudova. Z. Qurbonova. Umumiy psixologiya. (muammoli ma’ruzalar matni). Namangan. 2004.
8. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. (muammoli ma’ruzalar matni). Namangan. 2005.
9. Gunnar S. Nils G. Falsafa tarixi. “Sharq” nashiriyoti T -2002 y
10. The seventh Letter 341, Translation by J.Harward, Gampridge University Press
11. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma’ruzalar to‘plami).T. 2003. ToshDPU.
12. [https://en.wikipedia.org/wiki/International\\_Olympiad\\_in\\_Informatics](https://en.wikipedia.org/wiki/International_Olympiad_in_Informatics)
13. <http://www.sarahmei.com/blog/2014/07/15/programming-is-not-math/>
14. <https://www.scratchjr.org>
15. <http://scriptk.it>